

MAQOLLARDA NUTQIY AKT

Yaxyoyeva Umida Ibrohim qizi

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tili va jurnalistika yo‘nalishi

2-kurs tayanch doktoranti

ANNOTATION

In this article, speech acts, which played an important role in proverbof linguistic pragmatics and became one of the special fields of anthropocentric theory according to their methodological status, are theoretically studied.

Key words: linguistic pragmatics, speech act, locative act, illocutionary act, perlocutionary act, propositional act.

Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi¹. Maqol atamasi arabcha [قول] – “qavlun – gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan bo‘lib, xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zdir. Maqollar nutq jarayoniga qadar tilda tayyor, barqaror birikma sifatida mavjud bo‘lib, so‘zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqiga olib kiradi. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi va ulardagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so‘z qo‘shish mumkin emas. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida mavjud hamda hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko‘ra mushtarak hisoblanadi. Maqol o‘zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, turklarda ata, arablarda (jonli so‘zlashuvda) naql atamasi bilan yuritiladi. Ko‘rinib turibdiki, ularning nomlanishida ham yaqinlik seziladi. Jumladan, arablarda “qavlun” – gap, so‘z ma‘nosini ifodalasa, tojiklarning “zarbulmasal” atamalarida misol keltirish, ruslar “poslovitsa”sida so‘zlar bilan fikrni ifodalash, turklardagi “ota so‘zi”da esa ajdodlar fikrini eslash ma‘nosi yetakchi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham “sav” atamasi otalar so‘zini eslash tarzida keltirilgan. Ko‘rinadiki, maqol atamasi umumiy mazmun jihatdan “so‘z” tushunchasi bilan bog‘lanadi. Fanda maqollarni xalq og‘zaki ijodi, etnografiya, tilshunoslik obyekti sifatida tekshirish, idioma-ibora-maqol tizimida ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish uzoq tarixga ega². Tilshunoslikda mazkur yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishda muayyan

¹ A. Nurmonov, A. Sobirov, N. Qosimova va boshqalar. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili* 1, 2, 3- kitoblar. Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013.

² Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. дисс. автореф. – Самарқанд, 2019

natijalarga erishildi³ va bunda maqol, asosida turg'un birikma, aniqrog'i ibora tarkibida o'rganila boshlandi, frazeologizm obyektiga tor va keng ma'noda qarash shakllandi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmning obyektiga ibora, idioma, maqol, matal kabilarning ilmiy tadqiqiga doir ko'pgina izlanishlar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida maqolning ma'noviy, uslubiy xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratilgan ishlar bajarildi.

Demak, maqollda kundalik kechinmalar va umumiy kuzatishlar ixcham va obrazli tarzda umumlashtirilgan bo'lib, ular ming yillar davomida yaratilgan, foydalanilgan va avlodan-avlodga hikmat va haqiqat ifodasi sifatida o'tib kelgan. Shu bois olimlar bu til hodisasiga qiziqib, uni turli nuqtayi nazardan tadqiq qila boshlaganlari ajablanarli emas. Biz ushbu tadqiqot ishimizda "donolikning qisqa jumlasini" bo'lmish paremalarni nutq akti nazariyasi asosida o'rganishga harakat qildik va bu borada dastlab dunyo tilshunosligiga murojaat qildik. Frazeologik birliklar ichida maqollar eng murakkab turkum, ya'ni propozitsion frazemalarni tashkil etadi, chunki ular kommunikativ jihatdan o'z-o'zidan tarkib topgan birliklar bo'lib, tayyor matn komponenti vazifasini bajaradi. Ularning boshqa murakkab nutq birliklaridan farqi maqollar ijtimoiy munosabatlar, xalq madaniyati, urf-odat-u an'alarini o'zida mujassamlashtiradi⁴. Biz odatda maqol deb ataydigan narsa an'anaviy, yetarlicha barqaror va taniqli birliklardir. Maqollar nutqiy hodisada to'liq so'z hosil qilish, to'liq so'zlashuv hissasini qo'shish va nutq harakatini bajarish uchun xarakterlidir⁵. Shunday qilib, biz aytishimiz mumkinki, ba'zi maqollar ijtimoiy buyruqni aniq ifodalaydi, boshqalari ko'pincha didaktik kuch bilan qo'llaniladi, boshqalari esa kontekstda tinglovchiga harakat yo'nalishini taklif qilishi mumkin⁶. Odamlar bir-biri bilan muloqot qilganda, odatda, turli xil vazifalarni bajarish uchun kundalik nutqida maqollardan foydalanadilar. Maqollar maslahat berish, tanqid qilish,

³ З.Воробьев П.Г. Пословицы и поговорки в художественном творчестве и письмах А.С.Пушкина // Русский язык в школе. – Москва, 1949. №4. – С. 18–22; Ефимов А.И. Фраzeологический состав повести Карамзина «Наталья, боярская дочь». Материалы и исследования по истории русского литературного языка. Т. I, – Москва, 1949. – С. 69–95; Фраzeологический анализ художественного произведения. «О языке художественных произведений». – Москва, 1954. – С. 181–216. Язык сатиры Сальтыкова-Щедрина. – Москва: МГУ, 1957; Бинович Л. О многозначности идиом // Иностранные языки в школе. – Москва, 1952. №5. – С. 27–32; Базыленко А.М. Устойчивые словосочетания в языке Якуба Колоса. – Минск, 1952. – 28 с.; Рыбникова М. Разговорная фраzeология в языке Маяковского. Сборник «Творчество Маяковского» – Москва, 1952. – С. 437–479; Булаховский Л.А. Идиомы и фраzeологические единицы. «Введение в языкознание», часть II. – Москва, 1953. – С. 32–35; Кунин А. О фраzeологических сращениях в современном английском языке // Иностранные языки в школе. – Москва, 1953. №3. – С. 28–31; Ахатов Г.Х. Фраzeологические выражения в татарском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казан, 1954. – 22 с.; Реформатский А.А. Лексикализация, идиоматика, фраzeология. «Введение в языкознание». – Москва, 1955. – С. 90–97; Ожegov С.И. О структуре фраzeологии. Лексикографический сборник. Вып. II. – Москва, 1957. – С. 31; Ткаченко В.П. Вопрос о пословицах как материале фраzeологии. Уч. зап. Саратовс. гос. пед. инс. Вып. XXX, 1958. – С. 123–127;

⁴ Aleš Klégr. Proverbs as Speech Acts in English and Czech Proverbs. 2013

⁵ Norrick, N. R. (1991). 'One is none': Remarks on repetition in proverbs. *Proverbium: Yearbook of International Proverb Scholarship* 8, 121–128.

⁶ Mieder, W. (1996). Proverbs. In J. H. Brunvand (Ed.), *American folklore: An encyclopedia* (pp.597-601). New York: Norton.

tahdid qilish, so‘rash va boshqa ko‘plab kommunikativ vazifalarni bajaradilar. Maqollarning nutqiy harakat sifatidagi tushunchasi ancha vaqtdan beri mavjud bo‘lib, ushbu nutq harakati nuqtai nazarining maqollarga nisbatan qo‘llanilishining dastlabki namunasi Norrickda⁷ uchraydi. Maqollar nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘noda aytilgan narsalarni anglatadi, balki ichki yashirin ma‘nolarga ega bo‘ladi va buni faqat matnlardangina anglash mumkin. J.Searl ularni bilvosita nutqiy harakatlar sifatida izohlaydi. M.Harnish maqollarga oid maqolasida nutqiy aktlarni quyidagicha sxemasini ishlab chiqadi: Maqolni aytayotgan notiq tegishli umumiy haqiqatga ishora qilish orqali:

- a) vaziyatni tushuntirishni;
- b) tinglovchining harakatini boshqarishni;
- c) tinglovchida munosabatni uyg‘otishni xohlaydi.

Tinglovchi maqolda ilgari surilgan (a), (b) hamda (c) funksiyalarni ilg‘asagina muloqot muvaffaqiyatli bo‘ladi⁸.

Maqollar tushunchasining nutqiy harakatlar sifatida mashhurligi L.Daironing so‘nggi tadqiqotida⁹ hujjatlashtirilgan bo‘lib, unda u o‘ttizga yaqin yoruba maqollarini nutq aktini tahlil qilish nuqtayi nazaridan tekshiradi. U bu maqollarni izohlash uchun ifodalovchi harakatlariga ko‘ra tasniflaydi va maqollarning bir nechta harakatni bajarish uchun qanday ishlatilishini tekshiradi. U shunday xulosaga keladi: “Til foydalanuvchilari tomonidan qanday shaklda bo‘lishidan qat’i nazar, har qanday gap nutqiy harakatdir; shuning uchun maqol ritik o‘zgaruvchi sifatida muayyan harakatlarni bajarish uchun ishlatiladi”¹⁰. Ushbu izlanish natijasida maqollar hukm qilish, dalillarni ifodalash, ogohlantirish nasihat qilish, maslahat berish, ehtiyotkorlik va ko‘rsatma berish kabi turli vaziyatlarda qo‘llanilishi aniqlanadi. Lawal, Ajayi va Raji¹¹ singari tadqiqotchilar uning ishini davom ettirgan holda boshqa yoruba maqollarini shu jihatdan o‘rganishgan. Shu kabi tadqiqotchilardan biri Oday Muhammad Alshorafat¹² Iordaniyadagi badaviy maqollarida nutqiy akti o‘rgangan. O‘rganish natijasida ma‘lum bo‘ldiki, badaviy maqollari, asosan, so‘kish, tahdid qilish, maslahat berish, tanqid qilish kabi harakatlarni bajaradi. A. Ali va S.Makhlef¹³ ingliz va arab maqollarida nutqiy harakatlarni tahlil qilish uchun tadqiqot olib boradi. Ular ingliz va arab maqollaridagi tinglovchilar uchun aniq bo‘lmagan bilvosita ma‘nolarni o‘rganishdi. Shuningdek, ular J.Searlning nutqiy harakat modeliga amal qilgan holda

⁷ Norrick, N. R. (1985) How Proverbs Mean. Berlin, Walter de Gruyter

⁸ Harnish, R. M. (1993) Communicating with proverbs. Communication and Cognition 26, 3–4: 265–289

⁹ Dairo, L. A speech act analysis of selected yoruba proverbs. Journal of Cultural Studies.2010. 8, 3: 431–442.

¹⁰ Dairo, L. A speech act analysis of selected yoruba proverbs. Journal of Cultural Studies.2010. 8, 3: 431–442.

¹¹ Lawal, Ajai va Raji. (1996). Yoruba maqollarining tanlangan juftliklarini pragmatik tadqiq qilish. Pragmatika jurnali, 27, 635-52.

¹² Alshorafat, O. (2016). Speech Acts of NorthEastern Badia's Proverbs. AM Thesis. Al-alBayet University. Jordan

¹³ Ali, A & Makhlef, S. (2011). A Speech Act Analysis of Some English and Arabic Proverbs. Tikrit University Journal for Humanities,18(4), 44- 66ik

59 ta ingliz va arab maqollarini tahlil qilish bilan cheklandilar. Ularning o‘rganishi shuni ko‘rsatdiki, nutqiy harakatlarning eng ko‘p uchraydigan turlari “komissiyaviy” va “vakillik” nutqiy harakat turlari hisoblanadi. Qolaversa, ingliz va arab maqollarida birlamchi ogohlantirish harakati, ikkinchi o‘rinda ta’kidlovchi aktlar, uchinchi o‘rinda maslahat beruvchi harakatlar turadi. Shuningdek, tahdid qilish, so‘rash va maslahat kabi boshqa aktlar pastroq foizni tashkil qiladi. A.Yan¹⁴ ingliz maqollarini nutq akti jihatidan o‘rganadi. U nutq akti nazariyasini ingliz maqollarini tushinishda qanday qo‘llash mumkinligi va maqollarda yaratilgan tasviriy kuchlarning turli kontekstlarda qanday ishlashiga e‘tibor qaratadi. Tadqiqotchi maqollarning aksariyati “yo‘naltiruvchi”, “ifodali” va “vakillik” ekanligini aniqlaydi. G.Hor va H.Jamal¹⁵ nutqiy aktlarni Livan diniy maqollari misolida o‘rganishdi. Ularning tadqiqoti J.Searl nazariyasi Livan diniy maqollarida qanchalik mosligini tekshirishga qaratilgan. Ular Livan diniy maqollarida “vakillar” (43%) va “komissiyalar” (30%)ni tashkil etishni hamda deklarativ nutq aktlari umuman qo‘llanilmasligini aniqlaydilar. Lutfi¹⁶ ob-havo maqollarida nutqiy harakatlarni qo‘llaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ob-havo maqollari doimo bilvosita qo‘llaniladi. Ular ogohlantirish, maslahat berish, nasihat qilish, da‘vat qilish, bashorat qilishni ifodalaydi. Abdul Jabbar¹⁷ nutq akti nazariyasini Amerika ingliz maqollariga tadbiiq etadi. Tadqiqotda asosiy e‘tibor nasihat akti va uning o‘ziga xos semantik ma’nolarini ochishga qaratilgan. Tadqiqot Garri Kollining kitobi asosida amalga oshiriladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, qayd etilgan eng yuqori ball taklif nutq akti, keyingi o‘rinda tavsiya nutq akti turadi. Maslahat nutq aktiga ball berilmaydi. Boshqa barcha nutq harakatlari teng baholanadi

A. Jombadi va J.Juliana¹⁸ Yoruba maqollarida J.Serl nazariyasining haqiqiylikini tekshirish uchun tadqiqot olib boradi. Ularning tadqiqoti 25ta maqolga asoslangan edi. Bu maqollarni to‘qqiz jihatga, ya’ni ijtimoiy munosabatlarga, adolat va axloqqa, dinga, falsafaga, hayot va mamotga, go‘zallikka, e‘tiqodga, dehqonchilik va o‘yinga qarab tasniflaydilar. Alshorafat Shimoliy-Sharqiy Badiya maqollarini nutq akti nazariyasi nuqtayi nazaridan tekshiradi. Uning ishi Shimoli-Sharqiy Badiya maqollarida uchraydigan illokatsion harakatlarning turlarini ajratib ko‘rsatish va o‘rganish hamda bu maqollarning pragmatik vazifalarini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, u badaviy bo‘lmaganlar nima uchun bu maqollarni o‘zlarining haqiqiy kontekstlaridan tashqarida va ichida tushunolmasligi va izohlay olmasligini tushuntirishga qaratilgan. Ko‘rinadiki, jahon tilshunosligida maqollarda nutqiy akt

¹⁴ Yan Speech Acts in the Use of English Proverbs. M. A. Thesis. Anhui University. China

¹⁵ Hor, G & Jamal, H. (2007). A Test of Searle's Speech Act Theory: A case Study of Lebanese Religious Proverbs. *International Journal of Humanities*, 5(4), 31-42.

¹⁶ Lutfi, A.. Weather Proverbs and Speech Acts. *Journal of Collage of Education*, 2(19), 296- 304

¹⁷ Abdul Jabbar, L. A Linguistic Analysis of the Speech Act of Advice in American English Proverbs. *Journal of College of Education for Women*, 19(1), 116-128.

¹⁸ Jombadi, A & Juliana, J. (2014). A Pragmatic Study of Yoruba Proverbs in English. *International Journal of Novel Research in Education and Learning*, 1(2), 10-19

masalasi yetarlicha o‘rganilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A. Nurmonov, A. Sobirov, N. Qosimova va boshqalar. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili* 1, 2, 3- kitoblar. Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013.
2. Abdul Jabbar, L. A Linguistic Analysis of the Speech Act of Advice in American English Proverbs. *Journal of College of Education for Women*, 19(1), 116-128
3. Ales Klegr. *Proverbs as Speech Acts in English and Czech Proverbs*. 2013
4. Jo‘raeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. diss. avtoref. – Samarqand, 2019